

ADABIY TANQIDCHILIKDA BADIY MAHORAT MASALALARI TADQIQI XUSUSIDA

Tulishova Gulzina Ravshanovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada adabiy tanqidchilikka davr siyosiy mafkurasining ta’siri masalalari hamda ijodkor badiiy mahorati muammolari mumtoz tanqidchilik va XX asr adabiy tanqidchiligi misolida tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Adabiy tanqid, mafkura, siyosat, adabiy jarayon, so‘z san’ati, adabiyotshunoslik, tafakkur, tasavvur.

ABSTRACT

The article examines the influence of the political ideology of the time on literary criticism and the problems of the artist's artistic skills on the example of classical criticism and literary criticism of the 20th century.

Key words: Literary criticism, ideology, politics, literary process, word art, literary studies, thinking, imagination.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается влияние политической идеологии того времени на литературоведение и проблемы художественного мастерства художника на примере классической критики и литературной критики XX века.

Ключевые слова: Литературоведение, идеология, политика, литературный процесс, искусство слова, литературоведение, мышление, воображение.

KIRISH

Muayyan xalqlar adabiyotida ko‘p asrlar davomida shakllangan va rivojlangan adabiy an’analar badiiy ijodning keyingi taraqqiyotiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Jahon adabiyoti tarixidan va hozirgi adabiy jarayondan ham bunga ko‘plab misollar topiladi. Binobarin, XX asr va Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti va tanqidiy tafakkur rivojini Alisher Navoiy ijodi va adabiy-estetik an’analarisiz to‘liq tasavvur etib bo‘lmaydi. Xususan, Navoiyning badiiyat, tanqid-adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohasidagi serqirra faoliyati va noyob asarlarining samarasи o‘larоq, XV asrda nazm qoidalari, talab-mezonlari va adabiy-estetika sohasida ham tizimli ta’limot vujudga keldi va bu ilhombaxsh ta’limot so‘z san’ati,

tanqid va nafosat ilmining keyingi asrlardagi taraqqiyoti uchun ham mufassal bir dastur bo‘lib xizmat qilayotganligini faxr bilan ta’kidlash lozim. Navoiyning badiiy-estetik va adabiy-tanqidiy qarashlari silsilasida so‘z san’atining deyarli barcha muhim tafakkur muammolari qamrab olinganki, ular nafaqat bugungi adabiy jarayon va ma’naviy-estetik rivojida, balki yirik adabiyotshunoslar e’tirof etganidek, keyingi davrlarda ham ko‘plab avlodlar uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Zero, Navoiyning ijod ahlining shaxsi, burch va mas’uliyati, badiiy so‘z fazilati va funksiyasi, adabiyot va san’at asarida shakl-mazmunning uyg‘unligi va ma’noning ustuvorligi kabi deyarli barcha asosiy masalalar xususidagi teran qarashlari bugungi kunda ham shoir va adiblar hamda adabiyotshunoslar uchun, shubhasiz, beqiyos va ibratli bir ijodiy dastur bo‘la oladi:

Nazmda ham asl anga ma’ni durur,

Bo‘lsin aning surati har ne durur.

Nazmki ma’ni anga marg‘ub emas,

Ahli maoniy ollida xub emas.¹

Mumtoz nazmnинг qat’iy nizomiga aylangan bu mashhur satrlarda Navoiy davri adabiy-estetik tafakkurining o‘ziga xos yombi bir haqiqati va badiiy ijodning yuksak bir talab-mezoni ham yorqin ifodalangan. Ammo O‘zFA Til va adabiyot instituti olimlari tomonidan olyi o‘quv yurtlari uchun yaratilgan “Adabiyot nazariyasi” (1978-1979) darsligidagi “Adabiy asarda mazmun va shakl” bo‘limiga nazar tashlasak, butunlay boshqacha manzara va talqinga duch kelamiz. Ya’ni ushbu bo‘limda Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy-adabiy merosi umuman e’tirof etilgan emas, balki marksizm-leninizm ta’limoti vakillarining mazmun va shakl xususidagi qarashlari eng dono, eng to‘g‘ri fikrlar sifatida taqdim etilgan. Xolbuki, adabiyot va san’atning asosiy talabi va qonunlaridan biri bo‘lgan bu muammo XV asrdayoq Alisher Navoiyning ilmiy-nazariy asarlarida ham, turli janrlarda yaratgan mumtoz badiiy asarlarida ham ibratli tarzda hal etib berilgani adabiy jamoatchilikka, shu jumladan, mazkur nufuzli darslik mualliflari va olimlarimizga ham yaxshi ma’lum edi. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, Navoiy davri tanqid-adabiyotshunosligiga xos muhim bir xususiyat shundaki, Xamsa dostonlarida bo‘lgani kabi adabiy-nazariy qarashlar bevosita badiiy asarlarda ham sinkretik (qorishiq) shakllarda aks etgan.

NATIJALAR

Afsuski, sobiq sho‘ro davrida ilm-fan va adabiyotning barcha yutuq-muammolari hukmron sotsialistik tuzum siyosatining sinfiylik va partiyaviylik printsiplari nuqtai nazaridan talqin etildi. Hatto Qodiriy, Oybek va Qahhorlar yoxud Izzat Sulton va Ozod

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror.-T: Fan. 1989 yil 34-b.

Sharafiddinov kabi ulkan tanqidchi va adabiyotshunoslarimiz ham XX asr o‘zbek adabiyoti va she’riyati, asosan, 1917 yil Oktyabr revolyutsiyasi mevasi, Lenin va partiya dahosi bilan gurkirab o‘sdi degan biryoqlama xulosalarni yozishga majbur bo‘lganligi endilikda ayon bo‘ldi. Masalan, yirik adiblar va tanqidchi-adabiyotshunoslar tomonidan yaratilgan “Adabiyotimizning yarim asri” nomli eng salmoqli to‘plamda o‘sha davr bilan bog‘liq quyidagi hamdu sanolarni o‘qigan yosh avlodimiz istehzoli kulishi mumkin: “Xarob va qashshoq Turkiston atigi ellik yil ichida farovon va badavlat o‘lkaga aylandi. Ellik yil ichida shuhrati olamga doston bo‘lgan yangi o‘zbek kishisi yetishib chiqdi. Bularning barchasi ulug‘ Oktyabrning sharofati bilan bo‘ldi. Oktyabr Vatanimizdagi boshqa xalqlar qatori o‘zbekni ham asriy zulmdan ozod qildi, uni jaholat va nodonlik iskanjasidan qutqarib olib, o‘z taqdirining xo‘jasiga aylantirdi. Adabiyotimiz Oktyabr tufayli uning hayotbaxsh nurlaridan bahramand bo‘lib, Lenin partiyasining doimiy g‘amxo‘rligi ostida paydo bo‘lgan va kamol topgan buyuk ma’naviy boylikdir. Biz adabiyotimiz ravnaqini haqli ravishda revolyutsiya samaralari bilan, sotsialistik tuzumning hayotbaxsh kuchi bilan izohlaymiz... Hamza va Sadriddin Ayniyning revolyutsion qo‘sishlari va marshlari o‘zbek sovet poeziyasining rivojiga asos bo‘ldi...”¹

MUHOKAMA

Bunday biryoqlama talqinlar, eng avvalo mustabid tuzum siyosati va hukmron mafkura talablari bilan bog‘liq bo‘lganligi achchiq haqiqat. Negaki Ozod Sharafiddinov va tengqurlari adabiyot olamiga XX asr o‘rtalarida kirib kelgan, yosh nuqtai nazaridan emas, adabiyotga kirib kelgan yillari nuqtai nazaridan “oltmishboylar” (“shestidesyatnik”) degan faxrli nom bilan atashga munosib avlod o‘z sohasida qo‘lidan kelgan ishlarni qildi, lekin bu avlod boshidan osha sakray olmas edi. U har qancha hurfikrlikka intilmasin, butun umr qafasda yashashga majbur bo‘lgan edi.

Adabiyot va san’at rivojining muhim qonuniyatları ham “marksizm-leninizm daholari tomonidan “kashf” etilgan va barcha ilmiy-nazariy muammolari ularning aqli-zakosi bilan yoritib berilgan” degan uydurma “haqiqat”lar to‘qib chiqarildi. Qattol tuzum va mustamlakachilik siyosatining tuban maqsadi-xalqimizni shonli tarixi, milliy, islomiy va umuminsoniy qadriyatlarimizdan ham mosovo qilib, ularni unutishga, alaloqibat o‘zligimizdan voz kechishga majbur qilishdan iborat bo‘lganligi endilikda barchamizga ayondir. Mustabid sho‘ro davrida yaratilgan deyarli barcha adabiy-nazariy manbalar, darslik, o‘quv qo‘llanmalar va majmualarda ana shunday mafkuraviy soxta va biryoqlama qarashlar keng yoyildi. Masalan, turli yillarda o‘zbek va rus tillarida nashr etilgan “O‘zbek sovet adabiyoti tarixi” darsliklarida shu fikr

¹ Adabiyotimizning yarim asri. –T: Yosh gvardiya. 1967 yil 160-244-bb.

takrorlanib kelindi: “eng ilmiy, eng izchil ta’limot bo‘lgan marksizm-leninizm sovet adabiyoti, tanqid va adabiyotshunosligi uchun taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatuvchi yo‘lchi yulduz hisoblanadi”¹. Nihoyat, Istiqloldan so‘ng bunday g‘ayriilmiy qarashlar barham topa boshladi. Aslida, badiiy ijod tabiat-spetsifikasi va uning asosiy muammolari ham marksizm-leninizm korchalonlarining mash’um siyosiy va mafkuraviy ta’limotidan bir necha asr ilgari, Navoiy kabi ulug‘ shoir va allomalarimiz tomonidan chuqur anglab etilgan va ularning teran adabiy-estetik va tanqidiy fikr va qarashlari bevosita badiiy ijod jarayoniga tatbiq etilgan.

XULOSA

So‘z san’ati va tanqid-adabiyotshunoslikning rivojini ta’minlab kelgan bunday hayotbaxsh an’analar XX asr adabiyoti va tanqidchiligining yirik namoyandalari tomonidan ijodiy davom ettirilganini ko‘rishimiz mumkin. Endilikda Navoiy ijodi va shaxsi nafaqat turkiy xalqlar o‘rtasida, balki jahonshumul ahamiyat kasb etib borayogani xalqimiz va yurtimiz uchun ham ulkan sharafdir.

Xususan, Prezidentimiz tashabusi va taklifi bilan Turkiy davlatlar xalqlari o‘rtasida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro Davlat mukofoti ta’sis etilishi ulkan bir tarixiy voqeа bo‘lganligi yakdillik bilan e’tirof etilmoqda².

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror.-T: Fan. 1989 yil 34-b.
2. Adabiyotimizning yarim asri. –T: Yosh gvardiya. 1967 yil 160-244-bb.
3. Izzat Sulton va mualliflar jamoasi. O‘zbek sovet adabiyoti tarixi. –T: Adabiyot va san’at, 1967 yil 14-bet.
4. Qosimov U. O‘zbek dabiyoti va tanqidchiligi tarixidan lavhalar. –T: Iqtisod-moliya, 2006 yil 12-b.

¹ Izzat Sulton va mualliflar jamoasi. O‘zbek sovet adabiyoti tarixi. –T: Adabiyot va san’at, 1967 yil 14-bet.

² Qosimov U. O‘zbek dabiyoti va tanqidchiligi tarixidan lavhalar. –T: Iqtisod-moliya, 2006 yil 12-b.